

TALABALARNING KASBIY-METODIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL COMPETENCIES

SALIMOVA SARVINOZ FARXODOVNA

Buxoro davlat universiteti Biologiya kafedrası dotsenti, p.f.d (DSc).

MURODOVA XILOLA UMARQULOVNA

Buxoro davlat universiteti 1 bosqich tayanch doktoranti (PhD)

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni va imkoniyatlari yoritilgan. Elektron ta'lim platformalari, interaktiv topshiriqlar va virtual muhit orqali talabalarning kasbiy bilimlari hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Raqamli vositalar bo'lajak mutaxassislarda zamonaviy darsni loyihalash, o'quv materiallarini tanlash va baholash kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omili sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: kasbiy-metodik kompetensiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, talaba, metodik tayyorgarlik, elektron ta'lim, interaktiv ta'lim, raqamli resurslar, pedagogik faoliyat.

АННОТАЦИЯ. В данной статье освещаются роль и возможности цифровых образовательных технологий в формировании профессионально-методических компетенций студентов. Анализируются вопросы развития профессиональных знаний и навыков самостоятельной работы студентов посредством электронных обучающих платформ, интерактивных заданий и виртуальной среды. Цифровые технологии обоснованы как важный фактор формирования у будущих специалистов компетенций по проектированию современных уроков, подбору учебных материалов и оцениванию.

Ключевые слова: профессионально-методическая компетенция, цифровые образовательные технологии, студент, методическая подготовка, электронное обучение, интерактивное обучение, цифровые ресурсы, педагогическая деятельность.

ABSTRACT. This article highlights the role and potential of digital learning technologies in developing students' professional and methodical competences. It analyzes the advancement of students' professional knowledge and independent work skills through electronic learning platforms, interactive tasks, and virtual environments. Digital tools are substantiated as a crucial factor in building future specialists' competences in designing modern lessons, selecting educational materials, and conducting assessments.

Keywords: professional-methodical competence, digital learning technologies, student, methodical preparation, e-learning, interactive learning, digital resources, pedagogical activity.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarni tayyorlash sifatiga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Zamonaviy jamiyatda o'qituvchi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, innovatsion metodlardan foydalanish va raqamli texnologiyalarni amaliyotga tatbiq eta olishi zarur. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy-metodik kompetensiya talabani pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishi, o'quv jarayonini rejalashtirishi, o'qitish metodlarini to'g'ri tanlashi va ta'lim natijalarini baholay olishi bilan tavsiflanadi. Mazkur kompetensiya bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi darajasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shuning uchun oliy ta'lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy va metodik ko'nikmalarni shakllantirishga ham katta ahamiyat berilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib kirdi. Elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari va interaktiv dasturlar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu vositalar talabalarning bilimlarni mustaqil egallashi, axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi, o'quv materiallarini vizual va interaktiv shaklda o'zlashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ular orqali talabalar zamonaviy dars ishlanmalarini yaratish, elektron resurslardan foydalanish, ta'lim natijalarini monitoring qilish va baholash bo'yicha amaliy tajriba orttiradilar.

Bu esa kasbiy-metodik kompetensiyalarning samarali shakllanishiga yordam beradi.

Shuniquytainazardan, talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada raqamli ta'lim texnologiyalarining kasbiy-metodik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, afzalliklari va pedagogik ahamiyati yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rnini bir necha ilmiy manbalarda turli jihatdan yoritilgan. Bu manbalarda raqamli texnologiyalar faqat texnik vosita sifatida emas, balki ta'lim jarayonini yangilash, talabani mustaqil ishlashi, metodik fikrlashi va kasbiy tayyorgarligini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi.

O'zbek olimlaridan U.Sh. Begimqulovning "Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari" nomli monografiyasida pedagogik ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari keng yoritilgan. Muallif ta'lim muassasasida axborot muhitini yaratish, ta'lim portallaridan foydalanish va o'quv jarayonini axborot texnologiyalari asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Bu fikr mavzumiz uchun muhim, chunki talabani kasbiy-metodik kompetensiyasi ham zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish, darsni loyihalash va o'quv materiallarini raqamli shaklda taqdim eta olish bilan bog'liq. Demak, raqamli texnologiyalar bo'lajak mutaxassisni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

G.E. Turayevaning "Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish" nomli

monografiyasida axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, axloqiy va refleksiv sifatlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Muallif axborot texnologiyalari o'qituvchi shaxsida motivatsiya, faoliyatga yo'nalganlik, mustaqil fikrlash va pedagogik refleksiyani kuchaytirishini asoslaydi. Ushbu qarash talabalarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki raqamli ta'lim texnologiyalari talabani faqat bilim oluvchi emas, balki o'z faoliyatini rejalashtira oladigan, tahlil qiladigan va baholay oladigan bo'lajak mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Rus olimlaridan E.F. Zeer, A.M. Pavlova va E.E. Simanyukning "Modernizatsiya professionalnogo obrazovaniya: kompetentnostniy podxod" nomli monografiyasida kasbiy ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiya qilish masalasi yoritilgan. Mualliflar kasbiy kompetensiyani faqat nazariy bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki amaliy faoliyatga tayyorlik, kasbiy vazifalarni hal qila olish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan bog'laydi. Bu yondashuv talabalarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarga amaliy topshiriqlarni bajarish, dars jarayonini loyihalash, o'quv materiallarini tanlash va natijalarni baholash imkonini beradi.

T.E. Paxomovaning "Formirovanie IKT-kompetentnosti studentov pedagogicheskogo kolledja s uchytom mejdistsiplinarnoy integratsii v usloviyax sifrovizatsii obrazovaniya" nomli avtoreferatida bo'lajak pedagoglarda IKT-kompetentlikni shakllantirish masalasi tadqiq etilgan. Muallif IKT-kompetentlik tarkibida motivatsion, umumfoydalanuvchi, umum-pedagogik va predmet-pedagogik komponentlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu fikr raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish

faqat kompyuterdan foydalanish bilan cheklanmasligini anglatadi. Talaba raqamli vositalarni o'z kasbiy faoliyatida, metodik tayyorgarligida va ta'lim jarayonini tashkil etishda maqsadli qo'llay olishi kerak.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni juda muhimdir. Raqamli texnologiyalar talabalarda mustaqil o'rganish, darsni rejalashtirish, o'quv materiallarini yaratish, interaktiv metodlardan foydalanish va ta'lim natijalarini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli oliy ta'lim jarayonida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolani tayyorlashda nazariy tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod talabalarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rnini ilmiy jihatdan o'rganish va mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirishga xizmat qildi.

Nazariy tahlil jarayonida kasbiy-metodik kompetensiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, elektron ta'lim muhiti, interaktiv ta'lim vositalari va bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning talabalarda metodik fikrlash, darsni loyihalash, o'quv materiallarini tanlash va ta'lim natijalarini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi.

Mazkur metod orqali raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita ekanligi asoslandi. Chunki raqamli vositalar talabaning mustaqil ishlashi, axborot bilan ishlashi, metodik qaror qabul qilishi va zamonaviy ta'lim jarayoniga tayyorlanishiga yordam beradi.

Muhokama va natijalar

Talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirish bugungi oliy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Chunki zamonaviy mutaxassis nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki bu bilimni amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llay olishi kerak. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglar uchun darsni rejalashtirish, metod tanlash, o'quv materialini tushunarli yetkazish va ta'lim natijalarini baholash kabi ko'nikmalar muhim hisoblanadi.

Muhokama jarayonida shuni ko'rish mumkin, raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini kuchaytiradi. Elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari, interaktiv topshiriqlar va virtual ta'lim muhiti talabaga mustaqil ishlash, izlanish va o'z bilimini nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa talabaning faolligini oshiradi va uni kelajakdagi kasbiy faoliyatga yaqinlashtiradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini an'anaviy shakldan ko'ra kengroq va qulayroq tashkil etishga yordam beradi. Masalan, talaba elektron resurslar orqali mavzuni qayta o'rganishi, qo'shimcha materiallar bilan tanishishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o'z natijasini tezda ko'rishi mumkin. Bunday imkoniyatlar talabaning o'z ustida ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy-metodik kompetensiyalarni shakllantirishda raqamli texnologiyalar faqat yordamchi vosita emas, balki metodik tayyorgarlikni rivojlantiruvchi muhim omildir. Talaba raqamli vositalar yordamida dars ishlanmasi tayyorlaydi, taqdimot yaratadi, test va topshiriqlar tuzadi, o'quvchilar uchun qiziqarli materiallar ishlab chiqadi. Bu jarayon orqali unda pedagogik faoliyatga xos amaliy ko'nikmalar shakllanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun talabaning faqat texnik bilimga ega bo'lishi yetarli emas. U raqamli vositani qaysi maqsadda, qaysi mavzuda va qanday metod

bilan qo'llashni ham bilishi kerak. Shuning uchun raqamli texnologiyalarni o'rgatish metodik tayyorgarlik bilan bog'liq holda olib borilishi lozim.

Muhokama natijasida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalar talabalarda bir nechta muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bular axborot bilan ishlash, mustaqil o'rganish, ijodiy yondashish, darsni loyihalash, o'quv materiallarini tanlash va baholash ko'nikmalaridir. Ushbu ko'nikmalar kasbiy-metodik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalari talaba va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. O'qituvchi talabaning mustaqil ishini kuzatishi, topshiriqlar berishi, natijalarni baholashi va kerakli tavsiyalarni berishi mumkin. Talaba esa o'z navbatida o'quv jarayonida faol ishtirok etadi va o'z natijasi uchun mas'uliyatni his qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir: ta'lim jarayonini interaktiv tashkil etadi, mustaqil ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi, metodik fikrlashni rivojlantiradi, amaliy faoliyatga tayyorgarlikni oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular talabaning bilimini faollashtiradi, metodik tayyorgarligini kuchaytiradi va zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlaydi. Shu sababli oliy ta'lim jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalaridan maqsadli, tizimli va metodik asosda foydalanish zarur.

Xulosa

Talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim vazifalaridan

biridir. Chunki bugungi kunda bo'lajak mutaxassisdan faqat nazariy bilim emas, balki uni amaliyotda to'g'ri qo'llash, dars jarayonini samarali tashkil etish va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish ham talab etiladi.

Maqolada olibborilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Elektron ta'lim platformalari, multimedia vositalari, interaktiv topshiriqlar va virtual ta'lim muhiti talabalarning mustaqil ishlashi, metodik fikrlashi va ijodiy yondashuvini kuchaytiradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar darsni loyihalash, o'quv materiallarini tanlash, elektron resurslar yaratish, topshiriqlar ishlab chiqish va ta'lim natijalarini baholash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bu esa ularning

kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi.

Shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun ularni metodik maqsadga muvofiq qo'llash zarur. Ya'ni raqamli vosita faqat texnik yordamchi sifatida emas, balki ta'lim mazmunini boyituvchi, talabani faollashtiruvchi va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi pedagogik vosita sifatida qaralishi kerak.

Umuman olganda, talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan tizimli foydalanish ta'lim sifatini oshirishga, talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga hamda ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.
2. Turayeva G.E. Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish: monografiya. – Termiz: TerDU NMM, 2023. – 116 b.
3. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сыманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход: учебное пособие. – Москва: Московский психолого-социальный институт, 2005. – 216 с.
4. Пахомова Т.Е. Формирование ИКТ-компетентности студентов педагогического колледжа с учётом междисциплинарной интеграции в условиях цифровизации образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01. – Улан-Удэ, 2020. – 25 с.